

TEATR PEDAGOGIKASINING TARBIYAVIY JARAYON SIFATIDA TARIXIY RIVOJLANISHI

Samatova Dilrabo Yusufvna,
Guliston davlat pedadodika instituti
E-mail: dilrabosamatova316@gmail.com

Obidaxon Baxodirjonovna Po'latova,
Guliston Davlat Pedadodika Instituti
Pedagogika yo'nalishi magistranti
obida.pulatova1993@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada teatr pedagogikasining tarbiyaviy jarayon sifatida shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda qadimgi davrlardan boshlab teatr san'atining inson tarbiyasidagi o'rni, uning pedagogik vosita sifatida qo'llanishi hamda turli tarixiy davrlarda rivojlanish tendensiyalari yoritilgan. Shuningdek, Yevropa va Sharq pedagogik tafakkurida teatr elementlarining tarbiyaviy ahamiyati hamda jadid ma'rifatparvarlari faoliyatida teatrning ta'lim-tarbiyadagi o'rni ko'rib chiqiladi. Maqolada teatr pedagogikasining shaxsning ma'naviy-axloqiy, estetik hamda ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinib, uning zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari teatr pedagogikasidan ta'lim jarayonida, xususan, tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etishda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: teatr pedagogikasi, tarbiyaviy jarayon, tarixiy rivojlanish, ta'lim-tarbiya, drammatizatsiya, jadid pedagogikasi, estetik tarbiya.

Abstract. This article analyzes the formation and historical development of theater pedagogy as an educational process. The study examines the role of theatrical art in human upbringing from ancient times and its use as an effective pedagogical tool in different historical periods. In addition, the educational significance of theatrical elements in European and Eastern pedagogical thought, as well as the role of theater in education and upbringing in the activities of Jadid reformers, are considered. The article also analyzes the influence of theater pedagogy on the spiritual, moral, aesthetic, and social development of an individual and substantiates its importance in the modern educational process. The results of the study expand the possibilities of using theater pedagogy in the educational process, particularly in organizing effective educational and upbringing activities.

Keywords: theater pedagogy, educational process, historical development, education and upbringing, dramatization, Jadid pedagogy, aesthetic education.

Аннотация. В данной статье анализируются формирование и историческое развитие театральной педагогики как воспитательного процесса. В исследовании рассматривается роль театрального искусства в воспитании человека с древнейших времен и его использование в качестве эффективного педагогического средства в различные исторические периоды. Также раскрывается воспитательное значение театральных элементов в европейской и восточной педагогической мысли, а также роль театра в системе образования и воспитания в деятельности джадидских просветителей. В статье анализируется влияние театральной педагогики на духовно-нравственное, эстетическое и социальное развитие личности и обосновывается ее значение в современном образовательном процессе. Результаты исследования способствуют расширению возможностей использования театральной педагогики в образовательной практике, в частности в организации эффективной воспитательной деятельности.

Ключевые слова: театральная педагогика, воспитательный процесс, историческое развитие, образование и воспитание, драматизация, джадидская педагогика, эстетическое воспитание.

Kirish. Yosh avlodni har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan hamda yuksak ma'naviyatli insonlar etib tarbiyalash bugungi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yoshlarni zamonaviy bilim va kasb-hunarga ega, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar insonlar etib tarbiyalash – ta'lim tizimi oldidagi eng muhim vazifalardan biridir" [1]. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida o'quvchilarning nafaqat bilimni oshirish, balki ularning ma'naviy-axloqiy, estetik va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlaydigan samarali pedagogik vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda pedagogika fanida shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi innovatsion metodlar va texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ana shunday samarali pedagogik yondashuvlardan biri teatr pedagogikasidir. Teatr pedagogikasi o'quvchilarning emotsional tajribasi, ijodiy tafakkuri, nutq madaniyati hamda ijtimoiy kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, ularning ichki dunyosini boyitish va ijodiy faoliyatga jalb etishda muhim tarbiyaviy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Teatr pedagogikasining shakllanishi va rivojlanishi insoniyat madaniyati hamda pedagogik tafakkur tarixining muhim qismi hisoblanadi. Teatr san'ati qadimdan insonning hissiy dunyosiga ta'sir etish, ijtimoiy munosabatlarni aks ettirish hamda tarbiyaviy g'oyalarni yetkazish vositasi sifatida xizmat qilgan. Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, teatr elementlaridan ta'lim jarayonida foydalanish o'quvchilarning shaxsiy rivoji, ijtimoiy moslashuvi hamda axloqiy tarbiyasini ta'minlashda samarali metod hisoblanadi [2].

Shu boisdan teatr pedagogikasining tarixiy shakllanishi, uning pedagogik g'oya sifatida rivojlanish bosqichlari hamda tarbiyaviy jarayondagi o'rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot teatr pedagogikasining tarbiyaviy jarayon sifatida tarixiy shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida pedagogika, psixologiya hamda teatr san'ati sohasidagi ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Teatr pedagogikasining shaxs tarbiyasiga ta'siri hamda uning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash uchun bir qator ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotda ilmiy-tahliliy metod, tarixiy-pedagogik tahlil, qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish metodlari qo'llanildi. Ilmiy-tahliliy metod orqali teatr pedagogikasining nazariy asoslari va uning ta'lim jarayonidagi o'rni o'rganildi. Tarixiy-pedagogik tahlil yordamida teatr pedagogikasining rivojlanish jarayoni hamda uning turli davrlardagi pedagogik talqinlari tahlil qilindi. Pedagogik tadqiqotlarda tarixiy va nazariy tahlil metodlari ilmiy muammoni chuqur o'rganish hamda pedagogik hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishi qayd etilgan [2].

Shuningdek, qiyosiy tahlil metodi asosida teatr pedagogikasiga doir turli olimlarning ilmiy qarashlari solishtirildi va umumlashtirildi. Pedagogik tadqiqotlarda qiyosiy tahlil

metodi turli ilmiy yondashuvlarni solishtirish va umumiy ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi [3]. Tadqiqot natijalarini tizimlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarishda umumlashtirish metodidan foydalanildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar teatr pedagogikasining tarbiyaviy jarayon sifatidagi oʻrni va ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslash hamda uning taʼlim jarayonida qoʻllanish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari teatr pedagogikasining tarbiyaviy jarayon sifatida shakllanishini tarixiy bosqichlar orqali yoritadi. Qadimgi davrlardan boshlab teatr sanʼati inson tarbiyasida muhim vosita boʻlib xizmat qilgan. Qadimgi Yunonistonda dramatik asarlar, ayniqsa tragediyalar, jamiyat aʼzolarining axloqiy qarashlarini shakllantirish, fuqarolik ongini rivojlantirish va ijtimoiy qadriyatlarni targʻib qilish vositasi sifatida qoʻllanilgan [4]. Aristotel oʻzining “Poetika” asarida teatrning katarsis mexanizmi orqali shaxsning hissiy va axloqiy rivojlanishiga taʼsir qilishini taʼkidlagan [5].

Oʻrta asrlar va Uygʻonish davrida maktab teatrining rivojlanishi pedagogik jarayonlarda dramatisatsiya va sahnalashtirish usullaridan foydalanishni kuchaytirdi. Jezuit maktablarida teatr elementlari til oʻrganish, notiqlik va shaxsiy tarbiyaga xizmat qilgan [6]. Maʼrifatchilik davrida pedagoglar, xususan Jan-Jak Russo va Ioann Genrix Pestalotsi, dramatik faoliyat orqali bolalarning ijodiy va kognitiv rivojlanishini taʼminlashga eʼtibor qaratgan [7].

XX asr birinchi yarmida teatr pedagogikasining nazariy va psixologik asoslari mustahkamlandi. Konstantin Stanislavskiy Sistema Stanislavskogo orqali aktyorlik sanʼatini tizimli oʻrgatish metodikasini ishlab chiqdi va uni shaxsni tarbiyalash vositasi sifatida baholadi [8]. Shu bilan birga, Lev Vygotskiy proksimal rivojlanish zonasi tushunchasi orqali teatr faoliyatining bolalarning ijtimoiy va intellektual rivojiga taʼsirini nazariy asoslab berdi [9]. John Dewey esa learning by doing tamoyili orqali faoliyat orqali oʻrganish pedagogikasini teatr faoliyati bilan uygʻunlashtirdi [10].

Oʻzbekistonda jadidlar harakati teatr pedagogikasining mahalliy ildizlarini yaratdi. Mahmudxoʻja Behbudi, Abdulla Avloniy va Hamza Hakimzoda Niyoziy tomonidan yaratilgan dramatik asarlar va maktab teatrlarining tarbiyaviy ahamiyati katta boʻlgan [11]. Bu ishlar oʻquvchilarning axloqiy-ijtimoiy tarbiyasini shakllantirish, milliy qadriyatlarni targʻib qilish va ijodiy faoliyatga jalb etish imkonini bergan.

Zamonaviy davrda teatr pedagogikasi xalqaro miqyosda eʼtirof etilgan va oʻquvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va estetik rivojlanishiga taʼsiri ilmiy tadqiqotlar orqali tasdiqlangan [12]. Shu jumladan, Stănescu va Andronache (2020) tadqiqoti boshlangʻich maktab oʻquvchilarining emotsional intellekti va hamkorlik koʻnikmalarida sezilarli oʻsishni qayd etgan [13].

Natijalar shuni koʻrsatadiki, teatr pedagogikasi nafaqat tarixiy rivojlangan pedagogik tizim sifatida, balki zamonaviy taʼlim jarayonida shaxsning ijodiy va maʼnaviy rivojlanishini taʼminlovchi samarali vosita sifatida ahamiyatlidir. Bu yondashuv

o‘quvchilarning emotsional-empatik, axloqiy-qadriyatli, kognitiv-ijodiy va kommunikativ-ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish imkonini beradi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, teatr pedagogikasi tarixiy rivojlanish bosqichlarida har doim tarbiyaviy jarayonning markaziy elementlaridan biri bo‘lgan. Qadimgi Yunonistonda dramatik asarlar inson hissiyoti va axloqiy qarashlarni shakllantirishga xizmat qilgan, Aristotelning katarsis tushunchasi esa teatr faoliyatining emotsional va ma‘naviy tarbiya rolini nazariy asoslab bergan. Shu asosdan kelib chiqqan holda, zamonaviy pedagogika teatrni shaxsni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida qabul qilmoqda.

O‘rta asrlar va Uyg‘onish davrida maktab teatrining rivojlanishi, dramtizatsiya va sahnalashtirish metodlarining o‘quv jarayoniga joriy etilishi pedagogik amaliyotni yanada boyitgan. XX asr pedagogik tafakkurida Stanislavskiy, Vygotskiy va Deweyning ishlari teatr pedagogikasining psixologik, kognitiv va faoliyatga yo‘naltirilgan pedagogik asoslarini mustahkamladi. Bu tadqiqotlar teatr pedagogikasini faqat san‘at shakli emas, balki shaxsni tarbiyalash va jamiyatga moslashtirish vositasi sifatida ko‘rsatadi.

O‘zbek pedagogik tafakkurida jadidlar – Behbudi, Avloniy va Hamza Hakimzoda Niyoziy – teatr pedagogikasini xalqni ma‘rifatga chorlovchi, yoshlarni axloqiy-ijtimoiy tarbiyalovchi muhim vosita sifatida qo‘llagan. Zamonaviy tadqiqotlar, xususan Stănescu va Andronache (2020), shuni ko‘rsatadiki, teatr pedagogikasi bolalarning emotsional intellekti, hamkorlik ko‘nikmalari va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda samarali vositadir.

Shuni ta‘kidlash lozimki, teatr pedagogikasi nafaqat tarixiy pedagogik tizim sifatida, balki XXI asr ta‘limi kontekstida ham shaxsni ijtimoiy, ma‘naviy va estetik jihatdan rivojlantirishda dolzarb ahamiyatga ega. Teatr elementlaridan ta‘lim jarayonida foydalanish o‘quvchilarning kognitiv-ijodiy, emotsional-empatik, axloqiy-qadriyatli va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, teatr pedagogikasi tarixiy rivojlanish jarayonida shaxs tarbiyasining markaziy elementlaridan biri sifatida shakllangan. Qadimgi Yunon tragediyalaridan tortib XXI asr ta‘lim tizimidagi zamonaviy teatr pedagogikasi yondashuvlarigacha, teatr shaxsning ma‘naviy, emotsional, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishida samarali vosita bo‘lib kelgan.

O‘zbek pedagogik tajribasida jadidlar va zamonaviy ta‘lim tadqiqotlari teatr pedagogikasining tarbiyaviy ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bois, teatr pedagogikasini ta‘lim jarayoniga integratsiya qilish, xususan “Tarbiya” fanida qo‘llash o‘quvchilarning ijodiy va ma‘naviy rivojlanishini ta‘minlashning samarali vositasi sifatida muhimdir.

Kelajakda teatr pedagogikasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar empirik tajribalar, pedagogik eksperimentlar va zamonaviy metodik yondashuvlar asosida davom ettirilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2021.
2. Ishmuhamedov Rustam. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2008.
3. Tolipov O'tkir; Usmonboyeva Mavluda. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. – Toshkent, 2006.
4. Sofokl. *Tragediyalar*. Atena, miloddan avvalgi V asr.
5. Aristotle. (1996). *Poetics*. London: Penguin Classics.
6. Komensky, J. A. (1982). *Great Didactic (Didactica Magna)*. Moscow: Pedagogika.
7. Pestalotsi, J. H. (1827). *How Gertrude Teaches Her Children*. Zurich.
8. Stanislavskiy, K. S. (1938). *An Actor Prepares*. New York: Theatre Arts.
9. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society*. Cambridge: Harvard University Press.
10. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan.
11. Avloniy, A. (1992). *Turkiy guliston yoxud axloq*. Toshkent: O'qituvchi.
12. Boal, A. (1971). *Theatre of the Oppressed*. London: Pluto Press.
13. Stănescu, M., & Andronache, D. (2020). *The Importance of Theater Pedagogy from a Student's Perspective*. *Educatia* 21, 18, 104–112.

